



LANGUE FRANÇAISE
EN ASIE CENTRALE



MARKAZIY OSIYODA FRANSUZ TILI MINTAQAVIY OLIMPIADALARI - 2021-

TANLOV NIZOMI

2021-yilda Markaziy Osiyoda fransuz madaniy tarmog'i ilk marotaba fransuz tili bo'yicha onlayn Olimpiadalarni tashkil etadi, unda Markaziy Osijo (O'zbekiston, Qozog'iston, Qirg'iziston, Tojikiston va Turkmaniston) ning 5 respublikasidagi barcha frankofon va frankofillarga ishtirok etish bepul va ochiq.

Davlat tillarning har birida, shuningdek, fransuz va rus tillarida mavjud bo'lgan ushbu qoidalar fransuz tilining mintaqaviy olimpiadalarida ishtirok etish shartlari va qoidalarini belgilaydi.

ISHTIROK ETISH SHARTLARI

- yoshi, jinsi yoki millati bo'yicha cheklovlersiz Markaziy Osijo 5 ta respublikalarining frankofon va frankofilariga tanlovda ishtirok etish taklif etiladi.
- Bepul ro'yxatdan o'tish **2021 yil 10 aprel 12:00 gacha (Parij vaxti bilan)** ochiq.
- Barcha ishtirokchilar o'z yo'nalishiga muvofiq 8 ta toifaga bo'linadi:
 - 1-chi toifa: 1 dan 8 sinfgacha bo'lgan o'quvchilar
 - 2-chi toifa: 9 dan 11 sinfgacha bo'lgan o'quvchilar
 - 3-chi toifa: fransuz maktablari o'quvchilari va fransuz o'quvchilari
 - 4-chi toifa: fransuz tilidan mutaxassisligi bo'limgan talabalar
 - 5-chi toifa: fransuz tilidan mutaxassisligi bo'lgan talabalar
 - 6-chi toifa: fransuz tili o'qituvchilari va mutaxassislar
 - 7-chi toifa: boshqa holatlar, fransuz tili sohiblari bo'limgan
 - 8-chi toifa: boshqa holatlar, fransuz tili sohiblari bo'lgan
- Barcha ishtirokchilar ushbu nizomda belgilangan shartlarga, shuningdek sizga elektron pochta orqali yuboriladigan ko'rsatmalarga rioya qilishlari shart

TAQVIM VA VAZIFALAR FORMATI

- **10 aprel 2021:** ro'yxatga olish oxirgi kuni. Tanlovda faqat ro'yxatga olish tugaguniga qadar ro'yxatdan o'tishga muvaffaq bo'lganlar ishtirok etishlari mumkin.
- **18 aprel:** Olimpiadalarning 1-bosqichi "Orthodidacte" platformasi (Fransyaning imlo bo'yicha championi Guillaume Terien tomonidan tashkil etilgan) bilan hamkorlikda yaratilgan onlayn Diktant va Testdan iborat. Olimpiadaning birinchi bosqichiga ularish vaqt: 15:00 O'zbekiston, Tojikiston va Turkmanistonda / 16:00 Qozog'iston va Qirg'izistonda.
- **22 aprel:** 2-bosqichga o'tgan laureatlar ro'yxatini e'lon qilish. Birinchi bosqichda tanlangan eng yaxshi nomzodlarning faqat 64 tasi (har bir toifadan 8 ta) pochta orqali ikkinchi bosqichga taklif etiladi.
- **26 va 27 aprel:** Olimpiadalarning 2-bosqichi Markaziy Osiyodagi fransuz madaniyat tarmog'i a'zolaridan tashkil topgan hakamlar hay'ati bilan onlayn suhbatdir.
- **30 aprel:** yakuniy natijalar va Olimpiada g'oliblari ro'yxatini e'lon qilish.

TANLOV HAY'ATI

- 1-bosqich topshiriqlari "Orthodidacte" platformasining algoritmiga muvofiq avtomatik ravishda tekshiriladi (Diktantdagi xatolar soni, testda to'g'ri javoblar va unga sarflangan vaqt nisbati).



LANGUE FRANÇAISE
EN ASIE CENTRALE



- Tanloving og'zaki qismi uchun hakamlar hay'ati Markaziy Osiyoning 5 respublikasidagi fransuz tili o'qituvchilari va Fransiya elchixonalari, fransuz alyanslari va Fransiya instituti vakillaridan iborat bo'ladi.

SOVG'ALAR VA RAG'BATLANTIRISH

- Har bir toifadagi laureatlar ish joyiga va profilga qarab turli xil sovrinlar bilan taqdirlanadi: lingvistik yozgi amaliyotlar, fransuz tili kurslari, noutbuklar, iPad, elektron kitoblar (qisqa ro'yxat).
- Tanloving barcha ishtirokchilari ishtirok etganligi haqida guvohnomani qo'lga kiritadilar.

MA'LUMOTLARNI QAYTA ISHLASH

- Ro'yxatga olish formasida taqdim etilgan shaxsiy ma'lumotlar, shuningdek Olimpiadalarning turli bosqichlari natijalari Markaziy Osiyodagi 2021 Mintaqaviy Olimpiadalarining tashkiliy maqsadlari uchun maxfiy xarakterga ega bo'ladi.
- Ro'yxatdan o'tish paytida yoki Olimpiada bosqichlari davomida taqdim etilgan shaxsiy ma'lumotlar nashr etilmaydi yoki uchinchi shaxsga berilmaydi, 1-bosqichdan so'ng tanlangan ishtirokchilar familiyalari, ismlari va davlatlari ro'yxati bundan mustasno, shuningdek, og'zaki qismidan o'tgandan so'ng laureatlarning yakuniy ro'yxati bundan mustasno.

MAJBURIYATLAR

- Ro'yxatga olish vaqtida har bir ishtirokchi o'zi va uning holati haqida taqdim etilgan ma'lumotlarning ishonchliligi va to'g'rilagini tasdiqlaydi.
- Har bir ishtirokchi Olimpiadalarning turli bosqichlarini individual va mustaqil ravishda o'tadi, shuningdek, pochta orqali qabul qilingan kodlarni sir tutish majburiyatini oladi.
- Tashkilotchilar barcha nomzodlarning zarur chora-tadbirlar bilan kafolatlash uchun barcha zarur choralarни ko'rishga majburdirlar.
- Ishtirokchilarning internet aloqasi sifati, texnik nosozliklar va nomzodlar olimpiadalarga qo'shilishlari mumkin bo'lgan joyga xos cheklovlar mavjudligi bilan bog'liq barcha muammolar uchun tashkilotchilar javobgar bo'lmaydi.

KONTAKTLAR

- Savol yoki ma'lumot so'ralganda, iltimos, pochta orqali murojaat qiling: olympiadesregionales@gmail.com

